

YA'QUBI CHARXIY IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLARI

Zoyirov Erkin Xalilovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).

+99893-689-76-31. zoiroverkin76@mail.ru

UDK 1 (091) (5) Charxiy: 304.42

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ya'qubi Charxiyning tasavvuf pirlarining suhbatlari hamda ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida "Risolai unsiya" risolasidagi ma'lumotlar keltirilgan. Mutasavvifning aslida risoladan yozishdan maqsadi Bahouddin Naqshbandning muridlariga tariqatning odobi, usullari haqidagi suhbatlari hamda ustoz Alouddin Attorning hayot yo'lini yoritishdan iborat bo'lgan. Bahouddin Naqshband Ya'qubi Charxiyga zikr ilmini o'rgatishga ustozlik qilgan bo'lsa, tariqatga kamolotga yetishiga Alouddin Attorning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: jamiyat, siyosat, ijtimoiy, xon, amaldor, podshoh, davlat boshqaruvi, shart, Xalil Sulton, "Risolai dar manoqibi va aqoid", Naqshbandiya ta'limoti.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЯКУБИ ЧАРХИ

Аннотация: В данной статье представлены сведения из брошюры Якуби Чархи «Рисалай унсия» о беседах суфийских пиров и отношениях учитель-ученик. На самом деле целью мистика при написании трактата было пролить свет на мюридов Бахауддина Накиббанды о нравах и методах тариката и жизненном пути его учителя Алауддина Аттары. Если Бахауддин Накиббанд Якуби был наставником Чархи в обучении науке зикра, то роль Алауддина Аттары в развитии тариката несравнима.

Ключевые слова: общество, политика, социальный, хан, чиновник, царь, государственное управление, состояние, Халил Султан, «Рисолаи дар манокими ва акаид», учение Накиббанди.

SOCIO-POLITICAL VIEWS OF YAKUBI CHARKHI

Annotation: This article presents information from Yakubi Charkhi's brochure "Risalai unsiya" about the conversations of Sufi feasts and teacher-student relationships. In fact, the goal of the mystic when writing a treatise was to shed light on the murids of Bahauddin Naqshband about the customs and methods of the tariqa and the life path of

his teacher Alauddin Attar. If Bahauddin Naqshband Yakubi was Charkhi's mentor in teaching the science of dhikr, then the role of Alauddin Attar in the development of the tariqa is incomparable

Key words: *society, politics, social, khan, official, king, state administration, state, Khalil Sultan, “Risolai dar manokibi va aqaid”, Nakshbandi teaching.*

KIRISH

Tasavvuf va uning naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rganish va undagi ijobiy tomonlaridan milliy istiqlool mafkurasining teran ildizlari sifatida foydalanish ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga yordam beradi. Jamoaning tinchligi va osoyishtaligi masalasi tasavvuf ahlining muntazam diqqat markazida bo'lgan.

Ya'qubi Charxiy fikricha, Bahouddin Naqshband va Alouddin Attorning “qutb ul-irshod” darjasida bo'lib, yurt ishlariga aralashib turgan. Professor G.Navro'zova Bahouddin Naqshband ta'limotiga oid tadqiqotlarida mutasavvifning podshohlar bilan muloqotga kirishini quyidagicha keltiradi: “Tunda tanishlarimdan biri mening oldimga keldi. “Xalil nomli bir turk shayxzodasi seni yo'qlayapti”, – dedi. Xursand bo'lib o'rnimdan turdim. Kuz fasli edi. Buxoro ne'matlaridan biroz hadya oldim va bordim. U yerda bir xona bo'lib, darvesh xonaning burchagida o'tirgan ekan. Oldida bir guruh kishi bor edi. Salom qilib o'tirdim. So'ng o'sha tushni aytish istagi tug'yon urdi. Shu payt menga turkchalab: “Ulkim sening ko'nglingdadur, o'zi bizga ayondir, aytnoq ne hojat?”, dedi. Holim o'zgardi, unga maylim yanada ziyoda bo'ldi.

Men uning mulozamatida bo'ldim. Uning huzurida ajoyib holatlarni ko'rdim. Olti yildan so'ng unga Movarounnahr podshohlari uyushtirgan bo'ldi. Uni Sulton Xalil der edilar. O'sha paytda ham undan ulug' holatlar ro'y berardi. Uning olti yillik saltanati davrida yana unga mulozim bo'ldim, podshohlar xizmatidagi odoblarni o'rgandim va unga xizmat qilish odoblarini joyiga qo'ydim”. Demak, Naqshbandiya tariqati ahli ham ijtimoiy hayotdan uzoq turgan emas. XV asrning ikkinchi yarmida naqshbandiya tariqati va davlatdorlar o'rtasida yuzaga kelgan yangi munosabat “ixtilot” so'zi bilan ifodalangan. Bu so'z tariqat ahlining davlatdorlar bilan yangi ijobiy munosabatini anglatib, bordi – keldi, muloqot, suhbat, mashvarat, maslahat, kelishish, hamkorlik va boshqa shunga o'xshash ma'nolarda ishlatilgan.

Bunday an'analar Markaziy Osiyo xalklari ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy - ma'naviy hayotida yuz bergan Uyg'onish davrining keyingi bosqichida (XIV-XVI asrlar) diyorimizdan yetishib chiqqan yirik mutasavviflar Ya'qubi Charxiy, Xoja Ahrori Valiy (1404-1499), Muhammad Qozi (1447 - 1516), Maxdumi A'zam (1461-1542) kabi mutasavviflar tomonidan davom ettirildi va yangi g'oyalar bilan boyitildi. Ular vujudga kelgan ijtimoiy - siyosiy va madaniy - ma'naviy sharoit ta'sirida o'z salaflarining inson jamoalarining kelib chiqish sabablari haqidagi g'oyalarini o'ziga xos ravishda talqin

qilib, jamiyatning ravnaq topishi uchun avvalo jamiyatda mamlakatlararo va xalqlararo urush va qirg'inliklar, dinlararo adovat, insonlararo nizo - janjallar barham topib, o'zaro hamkorlik, hamjixatlik, ishonch va murosa ustuvor maqsadga aylanishi kerakligini ta'kidlaganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ya'qubi Charxiyning risolalarini ko'zdan kechirganimizda "Risola dar manoqib va aqoid" (Manoqib va aqoid haqida risolasi) asari naqshbandiya faoliyatining ijtimoiy – siyosiy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, "Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi" da № 5478/ VI raqam va 4 varaqdan iborat deb berilgan. Lekin qo'lyozmani fondan qo'lga kiritganimizda 5478/VII bilan turganligiga hamda 45 varaqdan iboratligiga guvohi bo'ldik.

Risola o'zbek tilida birinchi marta tarjima va falsafiy tahlil qilindi. Risoladan ko'rinadiki, Ya'qubi Charxiy o'zi yashagan davrdagi xonlar va amaldorlarning davlatni boshqarish ishlariga befarq qaray olmagan. Mutasavvif risolada xolifai roshidinlar, ya'ni Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Toliblarning xalifalik davrlardan boshlab, ularni xalqni dardi bilan yashaganliklarini keltirib o'tgan. Ya'qubi Charxiy ham boshqa mutafakkir va mutasavviflar yo'lini davom ettirib, podshohlarning fazilatlarini, davlatni boshqarishda o'nta shartga amal qilish zarurligini keltiradi.

"Bilginki, podshohlikning o'z shartlari bordir. Chunonchi, "Zaxiratul muluk" asarida keltirilganki, bu shartlarsiz saltanat ishlari, dunyo va din tartibga kelmaydi. Va mamlakat raiyatining ham podshoh oldida o'z huquqlari bordir. Podshoh raiyatiga bu haqlarni ado qilmay turib, oxirat azobidan emin bo'lmaydi. Bu kitobda bular to'g'risida imo va ijoz yuzasidan zikr qilinadi. Alloh muvaffaq qilsin". Demak, xalqning podshohga nisbatan huquqlari bo'lib, podshoh bu huquqlarni amalga oshirmasa oxiratda azobga duchor bo'ladi. Forobiy "Fozil odamlar shahri" risolasi o'n ikkita podshohlarning fazilatini keltirsa, Amir Temur "Temur tuzuklari" kitobida davlatni boshqarishning o'n ikkita qoidasini yaratib shularga amal qiladi. Ya'qubi Charxiy "Risola dar manoqib va aqoid" (Manoqib va aqoid haqida risolasi) da esa podshohlarning davlatni boshqarishga oid quyidagi o'nta shartini keltiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Birinchi shart shuki, biron voqea yuz bersa, podshoh va hokim bu voqeada o'zlarini raiyat deb tasavvur qilishlari, raiyatni esa podshoh va hokim deb o'ylashlari kerak. Ana shu paytda boshqalardan o'ziga ravo ko'rmagan hukmni o'zidan boshqalarga ravo ko'rmaydi. O'ziga yoqmagan narsa hech bir musulmonga ham yoqmaydi.

Demak, mutasavvif fikricha, podshoh va hokimlar o'zini ishida fuqarolarni teng ko'rishi, o'zi yoqtirmagan narsalarni birovlariga ham ravo ko'rmasligi kerak. Fuqarolarni kuch bilan bo'ysunishga majbur etish mumkin. Ammo qalblarni bo'ysundirib bo'lmaydi. Odamlar davlat kuch jihatidan ustun bo'lganligi bois bo'ysunishdan o'zga iloj

topolmaydilar. Ezgulik va olijanoblik vositasida fuqarolarni bo'ysundirish esa qalblarda quvonch tuyg'ularini uyg'otadi va odamlar haqiqiy itoatgo'ylikni namoyish etadilar.

Ikkinchi shart shuki, musulmonlar hojatini ravo qilishni ibodatlarining eng afzali deb hisoblasin. Mutasavvif fikrini asoslash uchun Payg'ambarimizning quyidagi hadislarini keltiradi: "Mo'min kishining qalbiga surur baxsh etish saqalayn (insu jin) ning ibodatidan afzalroqdir". (Ya'qubi Charxiy arab tilida kelgan bu xabarni "insu jinning yarim ibodatidan afzal deb tarjima qilgan". E.Zoyirov). Bas, musulmonlar podshohiga shart shuki, u muhtojlarning hojatlarini ravo qilishga intizor bo'lib tursin va bilsinki, uning eshigi oldida musulmon muntazir va muhtoj bo'lib turibdi. Uning hojatini ravo qilsin. Boshqa hech bir ibodatga mashg'ul bo'lmasin. O'zining rohatini musulmonlarning hojatidan ustun ko'rmasin.

Demak, davlat boshlig'i muhtoj, nochor insonlarning ahvolidan xabardor bo'lishi hamda ularga doim yordam qo'lini cho'zishi lozim. Bu masala hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bilan hamohang hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonidagi "taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasiga muvofiq keladi. Farmonga ko'ra, 2026 yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olinib, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish hamda "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish, jumladan "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" ni "Ijtimoiy himoya yagona reestri" bilan integratsiya qilishni nazarda tutadi.

Uchinchi shart shuki, yeb-ichishda xulafoi roshidinning siyratiga ergashsin. Yaxshi ovqatlarni yeyishga, qimmatbaho kiyimlarni kiyishga odat qilmasin.

Rivoyat borki, amiral mo'miniyn Ali Murtazo (r.a.) xalifalik masnadiga o'tirgach, bir kun bozor bordi. Uch dirhamga bir ko'ylak sotib oldi. Yengi qo'lining to'pig'ini yashirib turar edi. Pichoqni olib, uni kesib tashladi. Odamlar so'rashdi: "Ey amiral mo'minin, nega bunday qildingiz?". U javob berdi: "Shunday qilsam, tahoratga qulayroq, kamtarlikka loyiqroq va mo'min-musulmonlarning iqtido qilmog'iga sazovorroq bo'ladi".

Inson jamiyatda yashar ekan, o'ziga ravo ko'rgan narsani, o'zgaga ham ravo ko'rmog'i lozim. Aksincha, baxillik tufayli jamiyatning nafratiga duchor bo'lishi tayin. Bu dunyoning moddiy lazzatlariga berilib ketmaslikni Ya'qubi Charxiy doimo o'z ijodida tasvirlaydi. Foni dunyo o'tkinchi, boqiy dunyo adabiydir. Shu sababli qisqa foni dunyoda ochko'zlik tufayli, boqiy dunyoda azoblanib yurishning keragi yo'qdir. Insonlarning barchasi Alloh oldida tengdir. Shu sababli inson kibru havoga berilmasligi

kerak. Maqtanish, o'zini yuqori tutish, savlat qilish kabi kibrning tarkibiy qismlari oxir-oqibat insonni yolg'izlikka maxkum etadi.

To'rtinchi shart shuki, hukm paytida muloyimso'z bo'lsin. Keraksiz o'rinda achchiq so'zlamasin. Hujjatga ega bo'lganidan keyin ko'p kuttirmasin. Zaiflar va miskinlar bilan gaplashishdan o'zini olib qochmasin.

Demak, podshoh va hokimlarga xalqni dardini to'g'ri eshitishi, har bir ishni amalga oshirishda avval tekshirib, so'ng amalga oshirishi, g'azablanmasligi, hujjatlarni ko'rayotganda charchamasdan, oddiy insonlarni mensimaslik qilmaslikka chaqiradi.

Forobiy fikricha, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

Bu haqda "Temur tuzuklari"da ham keltirilgan. "Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim. Har neki desam, unga o'zim amal qildim. Hech kimga g'azab bilan qattiq muomalada bo'lmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, xolimni tang etmasin deb.

Inson bolasi borki, orzu umid bilan yashaydi. Davlat va jamiyat uning orzu va maqsadlari ushaliishiga yordam berishi shart va zarur. Biz ana shunday davlatni – qalbimiz va ongu shuurimizdan mustahkam o'rin olgan Yangi O'zbekistonni barpo etishga qat'iy bel bog'ladik.

Beshinchi shart shuki, xalqni rizosi uchun biron hukm qilmasin, kimnidir xushnud qilish uchun haqiqat va shariatdan foydalanmasin. Bilginki, hukumatning bir xususiyati shuki, xalqning muhimmoti odil hokimsiz amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun hokimning hukmi Haq va xalqning rizosidan boshqa narsaga moyil bo'lmasin. Haqni o'zidan rozi qilish yo'lida xalqdan qo'rqmasin. Shunda Haq xalqni ham undan rozi qiladi. Chunki, Payg'ambar (s.a.v.) aytganlar: "Kimki chin dildan Alloh rizosini talab qilsa, Alloh undan xalqni rozi qilib qo'yadi".

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi faoliyatini yo'lga qo'yildi. Davlat tashkilotlari faoliyatida "mahallalar kesimida ishlash", "xalq ichiga kirish", uning "dardiga quloq solish", "tashvishiga sherik bo'lish" va "muammolarni joyida hal etish" tamoyillari o'rnatildi.

Ya'qubi Charxiy fikricha, podshoh halq rizoligi yo'lida sustkashlikka yo'l qo'ymaslik ta'kidlaydi. Podshohlikning belgilaridan bir shundan iboratki, halqning dardi, muammosi adolat orqali amalga oshadi. Shuning uchun Alloh podshohdan rozi bo'lsa, xalq ham undan rozi bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda ko'p yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan "davlat – jamiyat – inson" tamoyillarini "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirildi. Yurtimizda "Davlat – inson uchun" g'oyasi amal qila boshladi.

Oltinchi shart shuki, hukumat va boshqaruvga bog'lanib qolmasin. Aniq bilsinki, amirlik va hukumat mansabi ilohiydir. U orqali saodatni va oxiratdagi neknomlikni topish mumkin va ham shaqovatu badbaxtlikka giriftor bo'lib, abadiy badnomlikni sotib olish mumkin. Jahonning qancha hokimlari o'tkinchi davlatning loyiga botib, mag'rur bo'ldilar. Nafs va havo orqasidan ergashib, o'z dinlarini vayron qilib, Alloh xohlamagan ishlarni qilib, iymonlarini yelga sovurdilar. Bas, hozir ixtiyor jilovi qo'lda ekan, diniy va dunyoviy davlatni abadiy qo'ldan bermaslikka jahd qilsin hamda savobli ishlar rejasini tuzsinlar, adolat yo'ldan yurishni g'animat bilsinlar. Xabarda keladiki, odil hokimning har kunlik odil hukmi barcha raiyatning toatiga tengdir. Bas, podshoh hamisha o'zini bu saodatdan mahrum bo'lib qolmasligiga harakat qilishi kerak.

Ya'qubi Charxiy, payg'ambarimizning "**bir soatlik adolat oltmish yillik nafl ibodatdan afzal**" mazmunidagi xadisini eslatib, davlat rahbarlari hamisha adolat tarozisini har ishda, har doim qo'llashlari lozimligini uqtiradi, odillikni davlat mustahkamligi, umrboqiyli va ravnaqining asosi ekanligini bayon qiladi. Bu adolatning ibodatdan afzalligini, mo'min – musulmon adolat tantanasi uchun intilmog'i lozimligini qayd etishdir.

Naqshbandiya tariqati nazariyotchisi Maxdumi A'zam XON deb **adolatni, uning mezonini** qilib - **haqiqat** va ikki pallasida esa **shariat** va **tariqatni** ko'rsatadi. Adolat insonning tabiati va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan qudratli ma'naviy kuchga ega bo'lgan g'oyadir.

Ya'qubi Charxiy fikricha, podshoh davlatni xatarda qoldirib, g'aflatda bo'lmasligi kerak. Chunki, podshohlik mansabi bu bir vosita bo'lib, oxiratning saodati, yaxshiligi yoki abadiy badbaxtlikka qolishishi mumkin. Bular adolat yo'lini tutib, savob topishni o'ziga g'animat bilsinlar. Mutasavvif ta'limotida ba'zi podshohlar va amaldorlar foniylar boyliklarga aldanib, nafs ammoraga berilib, o'z iymonini buzmoqdalar.

Xalqimizda hamma narsadan ustun qo'yadigan adolatni hayotimizda tom ma'noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylanmoqda. Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – Yangi O'zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir. Xalqimizning bu boradagi taraqqiyot strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning insonga, xalqqa, xalqning davlatga bo'lgan munosobati o'zgarayotganida ham namoyon bo'lmoqda.

Yettinchi shart shuki, olimlar va solih kishilar suhbatiga rag'bat ko'rsatsin. Bunday kishilar bu jahonda kamdirlar, xossatan, shu kecha-kunduzda kamyobdirlar. Mabodo, Allohning ko'magi bilan bundaylarni topsa, ularning suhbatiga harismand bo'lsin va bu qavmning borligini o'z zamonining saodati deb bilsin. Dajjol sifatli va siyratli kishilar

suhbatidan qochsin. Hozirgi zamonda xalqqa ulamo va mashoyix suratida ko‘rinadigan va dunyo sarqiti uchun tama’ qilib, har kimga hamdu sano o‘qiydigan solihsurat fosiqlardan uzoq bo‘lsin. Ehtiyot bo‘lsinki, ular ulamo va mashoyix kiyimida bo‘lgan dinning kushandasidirlar.

Bunday fikrlar “Temur tuzuklari” da ham keltirilgan: “sayyidlar, ulamo, mashoyix, okilu dono lar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini o‘rniga qo‘ydim. Shijoatli kishilarni do‘st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Ulamo bilan suhbatda bo‘ldim va pok niyatli, toza kalbli kishilarga talpindim, ularning himmatlaridan ulush tilab, muborak nafaslarini bilan duofotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o‘zimga yaqin tutdim, ularning ko‘ngillarini og‘ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og‘zi shaloq, g‘iybatchi odamlarni majlisimga yo‘latmadim, so‘zlariga amal kilmadim. Biror kimsaga tuhmatu g‘iybat qilsalar, kuloq solmadim.

Demak, Ya‘qubi Charxiy fikricha, podshoh ulamolar solih kishilarning ziyorati va suhbatiga intiluvchi bo‘lishi kerak. Podshoh ulamo va mashoyix suratiga kirib, har qanday boylik tamasida duo aytuvchi, johil, dajjol sifatli fosiqlarning suhbatidan qochishi lozim. Chunki, bu toifa kishilar ulamo hamda mashoyixlarga o‘xshasada, aslida dinni vayron qiluvchi hisoblanadi. Shuning uchun mutasavvif podshohlarga ilm ahlini e‘zozlashi, suhbatda bo‘lib turishi, davlatni boshqarishda maslahat olishi kerak degan xulosani keltiradi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoevning “Yana bir bor ta’kidlayman: men Yangi O‘zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renesansni barpo etishda pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Ularning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o‘z burchim, deb hisoblayman”. Jumladan, “2017-2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda biz, avvalambor, fuqarolarimiz bilan muloqot qildik, bamaslahat ish tutdik, xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayandik” – degan fikrlari hamda olib borilayotgan islohotlarini, aynan Forobiy, Amir Temur hamda Ya‘qubi Charxiy g‘oyalarining amaliy natijasi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Sakkizinchi shart shuki, jabru zulm va takabburlik qilib xalqni o‘zidan uzoqlashtirmasin, balki adolat va insof bilan hamda zaiflarga va tangdastlarga shafqat ko‘rsatish orqali o‘zini raiyatga sevimli qilsin. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) buyurdilar: “Sizlarning podshohlaringizning eng yaxshisi shunday kishiki, u sizlarni yoqtiradi va sizlar ham uni yoqtirasizlar va eng yomon hokimlaringiz shunday kishiki, u sizlarni dushmandek ko‘radi va sizlar uni dushmandek ko‘rasizlar”.

Mutasavvifning ushbu sharti “Temur tuzuklari” dagi “adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr exson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim. Siёsat va insof bilan sipohiylarim va raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutdim. Fuqaro va ko‘l ostidagilarga rahmdillik kildim, sipohiylarga in‘omlar ulashdim...” – degan fikrlar bilan umumiylik mavjud.

Ya‘qubi Charxiy fikricha, podshoh va amaldorlar kibr va zulmi bilan xalqni bezdirmasdan, qo‘rqitmasdan, balki adolatparvarligi, zaiflarga hamda qo‘l ostidagi ishlaydiganlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, mehribonlik ko‘rsatib, do‘st tutishi orqali hurmat qozonishi mumkin. Demak, Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda: “odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning mavhum kelajakda emas, balki bugun farovon yashashini ta‘minlash, ularning hayotiy muammolarini hal etish va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish Yangi O‘zbekiston strategiyasining oliy maqsadi hisoblanadi”.

To‘qqizinchi shart shuki, podshoh qo‘l ostidagi xiyonatkor noiblar va xizmatkorlarning qilayotgan ishlaridan g‘aflatda qolmasin. Bo‘ri tabiatli zolim kimsalarni raiyat ustiga boshliq qilib qo‘ymasini. Ulardan qaysi birida zulm va xiyonat zohir bo‘lsa, tezda boshqalarga ibrat bo‘lishi uchun jazosini bersin. Podshohlik siyosatida sustkashlik qilmasin. Davlat arboblarni siyosat va nasihat bilan tarbiyalasin.

Davlatni idora etishda amaldorlar katta o‘rin tutishini yaxshi tushungan Nizomulmulk ularni to‘g‘ri tanlab, joy-joyiga ko‘yishni, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo‘lida tarbiya kilishni muhim bir talab deb biladi. Har qaysi amaldorni tarbiyalashga ko‘p vaqt ketishi va bu mushkul ish ekanini tushuntirib, hokimlarga qo‘l ostidagilarni ehtiyot qilishni maslahat beradi. Amaldorning xatosini ko‘rib, uni darrov ishdan olish to‘g‘ri emasligini, uni birinchi marotaba kechirib, yana xato qilmasligi uchun himoya qilish kerakligini aytadi.

Ya‘qubi Charxiy fikricha, podshohlar qo‘l ostida ishlaydigan zulmkor noib va johil amaldorlarning xiyonatiga befarq bo‘lmasdan, siyosatni mensimaganligi sabab boshqalarga ibrat bo‘lishi uchun jazo berish kerak bo‘ladi. Chunki, podshoh amaldorlarni siyosat va nasihat bilan adab berish lozim. Bugungi kunda yurtboshimizning hokimlarga olib borayotgan siyosati shundan dalolat beradi.

Xodimlarni boshqarish tizimi tashkilot uchun kerakli kadrlarni tanlash va saqlash, ularni kasbiy o‘qitish, har bir xodimning faoliyatini, hatti-harakatlarini to‘g‘ri baholash va samaradorligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ayniqsa, respublikada raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsiyalarni rivojlantirish natijasida yuqori malakali kadrlardan iborat zamonaviy tashkilotlarni shakllantirish hozirgi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev joriy yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida kadrlar masalasiga to‘xtalib shunday degandi: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta

qashshoqlik - bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi”.

O'ninchi shart farosatdirki, uning podshoh va hukmdorlarda bo'lishi vojibdir. Bo'layotgan har bir hodisaning haddiga, voqealarning ma'nolariga nazar qilsin. Har bir hukmni fahm va aqliga hozir qilib, basirat orqali haqiqatni ajrata olsin. Lozim narsalarga, kerakli jihatlarga va sabablarga boqsin. Mohiyatni tushunsin. Shar'iy masalalarning farqiga borsin. Xufya ishoralarning sirlarini farosat nuri bilan anglasin. Bu ma'nolarda har kimning gap-so'zlariga ishonmasin. Chunki, hodisalar benihoyatdir, ular vafo qilmaydi.

XULOSA

Ya'qubi Charxiyning “Risola dar manoqib va aqoid” asaridagi g'oyalari uning davrida naqshbandiya siyosiy faoliyatida tariqatning “siyosiy dasturi” sifatida u yoki bu darajada hayotga tadbqiq etila boshlandi.

Mutasavvifning ijtimoiy – siyosiy ta'limoti shuni ko'rsatadiki, xalqning ahvolini yaxshilash, ularning manfaatini himoyalash uchun turli vositalardan, inchunun siyosiy institutlarning imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish zarur. Maqsad yurt tinchligi, el farovonligi bo'lishi lozim. Bu ta'limot milliy istiqloq mafkurasining teran diniy-falsafiy ildizlaridan biridir.

Naqshbandiya tariqatining XIY asrdagi buyuk rahnamosi Ya'qubi Charxiyning ijtimoiy – siyosiy faoliyati istiqloq tufayli vujudga kelgan yangicha ruh va mazmundagi falsafa va tarixshunoslikning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Lekin bu muhim masala uzoq yillar davomida qo'lyozma manbalar asosida mukammal va xolis o'rganilmadi.

Ya'qubi Charxiyning ushbu bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkin:

- Mutasavvif “Risola dar manoqib va aqoid” asari asosida o'zi yashagan xonlar va amaldorlarning davlatni boshqarishga oid qarashlarni ijtimoiy – falsafiy tadqiq qiladi;
- Ya'qubi Charxiy podshohlarning fazilatlarini hamda davlatni boshqarishda o'nta shartga amal qilish zarurligini tahlil etadi;
- Ya'qubi Charxiyning podshoh va hukmdorlar bilan munosobati, jamoani tinchligi kabi g'oyalarini Xoja Ahrori Valiy, Muhammad Qoziy hamda Maxdumi A'zamlar davom ettirib, rivojlantirgan va ma'lum tizimga solgan;
- Mutasavvifning ijtimoiy – siyosiy faollik g'oyasini davr taqozosi, muhit talabi deb aytish mumkin;

- Ya'qubi Charxiy davlat rahbarlari adolatli, vijdonli, qalbi pok, talabchan, aql-zakovatli, uzoqni ko'ra biladigan kishi bo'lmog'i lozim degan ezgu da'vatlari hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bilan hamohang hisoblanadi.

Yer kurrasining turli nuqtalarida nizo va adovatlar o'chog'iga cho'g' qadalgan harakatlar bo'layotgan hozirgi jarayonda Ya'qubi Charxiyning tinchlik, barqarorlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, o'zaro mehr – oqibat, shafqat va muruvvat muhitini qaror toptirishga qaratilgan ushbu ezgu da'vatlari o'ziga xos dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zoirov, E. H. (2021). Questions of ontology of nature in the teachings of mahdumi azam. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 91-94.
2. Зоиров, Э. Х. (2022). Ориф Ревгарий-второй пир Бухоро-ишариф. *АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований"*, (50), 48-51.
3. Зоиров, Э. Х. (2022, December). ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХДУМИ АЪЗАМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 121-131).
4. Наврўзова, Г., & Зоиров, Э. (2018). Бухорои Шарифнинг етти пири. Тошкент: Мухаррир, 80. 33. ЗОИРОВ, Э. Х. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХДУМИ АЪЗАМА. *АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований*, 20, 29-32
5. Зоиров, Э. Х. (2021). Вопросы онтологии природы в учении Махдumi Азама. *Академия: международный междисциплинарный исследовательский журнал*, 11(5), 91.
6. Наврўзова, Г., Зоиров, Э. Х., & Юнусова, Г. (2006). Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 56.
7. Зоиров, Э. (2015). Махдumi Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий сиёсий қарашлари. *Turon zamin ziyo*.
8. ЗОИРОВ, Э. Х. История, археология, религиоведение. *АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 48.
9. Нурматова, Н. У. (2017). Применение мультимедийных технологий в образовательных учреждениях. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (6), 25-27.
10. Ахмеджанов, М. М., & Нурматова, Н. У. (2017). Роль воспитания молодежи в духе толерантности в процессе глобализации. *Молодой ученый*, (7), 421-422.
11. Ахмеджанов, М. М., & Нурматова, Н. У. (2016). Farabi-first philosopher in his times. *Молодой ученый*, (2), 943-944.

12. Мурадов, С. А. Современные методы философии и их значение в развитии мышления человека. *Актуальные исследования*, 51(17), 273-276.

13. Murodov, S. A. (2022). Relationship between the universe and man in the works of Fariduddin Attor. In *International conference: problems and scientific solutions* (Vol. 1, No. 6, pp. 35-41).

14. Мурадов, С. А. (2009). Ибн Сино, Атор ва Навоий асарларида кушлар тимсоли. *Имом ал-Бухорий сабоқлари», Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. Тошкент*, 273-276.

15. Мурадов, С. А. кизи Касимова, ФФ (2022, December). ФИЛОСОФИЯ ДИЗАЙНА: ОСОБЕННОСТИ И СУЩНОСТЬ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS* (Vol. 1, No. 7, pp. 51-59).

16. Санжар, М. (2020). Взгляды Фаридуддина Аттара на бытие. *Международный журнал прикладных исследований. ИДЖАР*, 6(6), 34-36.

17. МУРАДОВ, С. А. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАРИДУДДИНА АТТОРА. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый", 51, 529-531.

18. Мурадов, С. А. (2023). ФАРИДУДДИН АТТОР-ВЕЛИКИЙ ШЕЙХ ВОСТОКА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 149-160).

19. Muradov, S. A. (2023). THE MAIN IDEAS OF THE FOUNDER OF THE GERMAN SCHOOL OF PHILOSOPHY. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 588-594.

20. Sanjar, M. (2020). The views of Fariduddin Attar on being. *International journal of applied research. IJAR*, 6(6), 34-36.

21. Sanjar, M. One of the Factors of Purity of the Heart is Futuwwat. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 98-101.

22. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Перспективы использования технологии сотрудничества в процессе подготовки педагога профессионального образования. *Молодой ученый*, (12), 839-841.

23. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Психологические основы педагогического проектирования. *Молодой ученый*, (12), 837-839.

24. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2015). Социально-психологические факторы формирования модели педагога в современном образовательном процессе. *Молодой ученый*, (2), 504-506.

25. Алимова, М. М. (2023). «РАСКРЕПОЩЕНИЕ» ЖЕНЩИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1920-1930 г. г). *Innovative Development in Educational Activities*, 2(8), 535-541.

26. Алимова, М. М., & Гариев, А. (2023). ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ КОРРУПЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 261-270

27. Хайтматова, Н., & Алимова, М. (2023). Вопросы равенства, прав и свобод женщин в Узбекистане. Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века, 1(1), 369-369.

28. Алимова, М. М. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. SCHOLAR, 1(28), 113-129

29. Алимова, М. М. (2023). РОЛЬ ГРАЖДАНСКИХ ИНСТИТУТОВ В ФОРМИРОВАНИИ НЕТЕРПИМОСТИ КОРРУПЦИИ У ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 253-264.

30. Алимова, М. М., & Абдусаттаров, С. Ш. (2020). ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА-ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА (pp. 13-16

31. Вахидова, М. Т. (2022). ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 82-90.

32. Вахидова, М. Т., & Мирзаев, У. Т. (2022, December). ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 52-62).

33. Vohidova, M. (2023). SOCIAL AND ETHICAL ASPECTS OF THE EXISTENCE OF TOLERANCE IN YOUNG PEOPLE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 559-566.

34. Яъкуби ибн Усмон ибн Махмуд ал-Газнавий ал-Чархий. Рисолаи унсия. ЎзРФА ШИ хазинаси, инн. № 5825/ Яъкуби Чархий. Рисолаи унсия. – Б. 5.

35. Раззокова М. Мавлоно Яъкуби Чархий. – Т.: Muharrir, 2013. – Б. 34.

36. Шамсуддин Бобохонов., Абдулазиз Мансур. Накшбандия тариқатиға оид қўлғезмалар фихристи. -Т.: Мавороуннахр. 1993. – Б. 18.

37. Khalilovich, Z. E., & Orifovich, D. G. (2020). ANALYSIS OF THE TEACHINGS OF MAHDUMI AZAM AND CLASSIFICATION OF PAMPHLETS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(4), 4-4.

38. Нурматова, Н. У. (2022). Юсуф Ҳамадоний ва хожагон-накшбандия таълимотининг “назар бар қадам” рашҳаси. *Zamonaviy oliy ta’lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya. Navoiy*, 30-31.

39. Djuraev, A., Sayitkulov, S., Kholmiraev, J., Rakhmonov, I., & Nurmatova, N. (2023, June). Cotton increase the efficiency of cleaning as a result of improving the unit for cleaning small and large wastes. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

40. Нурматова, Н., & Сафоев, Н. (2023). ШКОЛА СУФИЗМА ЮСУФА ХАМАДОНИ В БУХАРЕ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15).
41. Нурматова, Н. У. (2023). ЮСУФ ҲАМАДОНИЙ ТОМОНИДАН ХОЖАГОН ТАЪЛИМОТИГА КИРИТИЛГАН БИРИНЧИ РАШҲА. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 565-576.
42. Nurmatova, N. U. (2019). THE WORK “MAQOMOTI YUSUF HAMADONIY” BY ABDULKHOLIK GHIJDUVONIY—A SAMPLE OF RESPECT TO THE MASTER”. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 210-218.
43. UMAROVNA, N. N. Four basis analysis of human perfection in the work of Yusuf Khamadani, Odoobi tariqat. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(4), 1-3.
44. Nurmatova, N. U. Logical analysis of Abdulkhaliq Gijduvani’s work “Maqomoti Yusuf Hamadoni”/ISSN (Online): 2455-3662 EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. *Volume*, 7, 417-420.
45. Kakhramonovna, K. S. (2024). THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(3), 84-102.
46. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. *Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal*.—India, 10(4), 360-364.
47. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International engineering journal for research & development*.-India, 5(3), 143-148.
48. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 33, 2020-30.
49. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём фалсафий қарашларида инсон тақдири ва эркин ирода масаласи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 2, 197-204.
50. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг асосий асарлари ва рубойларининг тузилиши, мазмуни ва таҳлили. *Илм Сарчашмалари*.-Урганч, 10, 44-47.
51. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём рубойларининг талқин ва тавсифи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 9, 206-210.
52. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. *Фалсафа ва ҳуқуқ*.—Тошкент, 3, 107-110.
53. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. *Imam al-Bukhari IBS Journal*, 2.

54. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. Scientific Bullettin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_4-сон, 229.

55. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон кадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).

56. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.

57. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.

58. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.

59. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHİYAT. Журнал истории и общества, (2)

60. SHODIEV, J. (2021). SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYAM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

61. Shodiyev, J. (2021). O'ZBEKISTONDA IJTIMOİY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI. Academic research in educational sciences, 2(2), 409-416.

62. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 197-202.

63. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.

64. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.

65. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.

66. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.

67. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 616-625.

68. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.

69. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).

70. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. *GOLDEN BRAIN* 1 (24), 59-67.

71. Jo'raqulovich, S. J. (2023). О 'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.

72. Шодиев, Д. Д. (2023). INSON QADRI VA UNING MANFAATLARI HAMMA NARSADAN USTUN. *НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE"*, 1(2).

73. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. *SCHOLAR*, 1(28), 252-257.

74. Shodiyev, J. J. R. (2023). INSON-BU DUNYO FARZANDI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 357-369.

75. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 126.

76. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 17-17.

77. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 307-311.

78. Jurakulovich, S. J. (2024). GLORIFYING MAN AND INCREASING HIS VALUE IS THE MAIN GOAL OF THE THIRD RENAISSANCE. *INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT SJIF* 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805 eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 11, issue 11 (2024). Pp. 389-394.

79. Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси.– Т.: “Фан”, 2021. – Б. 41.